

«PREMIUM CASHBACK» AKSIYASINING INDIVIDUAL SHARTLARI¹

Aksiyaning marketing nomi	«PREMIUM CASHBACK»
Aksiya valyutasi	O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi — "so'm"
Aksiyada ishtirok etuvchi MCC-kodlar	"Retail" (chakana savdo) toifasidagi tranzaksiyalar
Aksiya o'tkaziladigan hudud	O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi onlayn va oflayn savdo maydonchalari
Aksiya ishtirokchilariga qo'yiladigan talablar	ATB «Tenge Bank» tomonidan emissiya qilingan Mastercard kartalari egalari bo'lgan jismoniy shaxslar, ular Aksiya o'tkazish davrida mazkur Individual shartlar va Aksiya Qoidalariga muvofiq bir yoki bir nechta xaridni tegishli karta orqali amalga oshirgan bo'lishi lozim.
Aksiyani o'tkazish muddati	2026-yil 6-martdan 2026-yil 31-maygacha (shu kuni ham kiradi).
Aksiyaning amal qilish shartlari	Tovarlar xaridi (shu jumladan chegirmadagi tovarlar).
Keshbek miqdori	– Mastercard Standard, Mastercard World, Mastercard World Digital kartalari bo'yicha — har bir muvaffaqiyatli to'lov summasining 5%; – Mastercard World Black Edition kartalari bo'yicha — har bir muvaffaqiyatli to'lov summasining 10%. Keshbek ATB «Tenge Bank» tomonidan emissiya qilingan Mastercard kartalari orqali amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha, Aksiya Qoidalari va mazkur Individual shartlarga rioya qilingan holda, Aksiya muddati davomida hisoblanadi.
Minimal chek summasi	– Mastercard Standard, Mastercard World, Mastercard World Digital kartalari bo'yicha — 35 AQSh dollaridan kam bo'lmagan miqdorda yoki so'm balansli kartalar uchun ekvivalent miqdorda; – Mastercard World Black Edition kartalari bo'yicha — 50 AQSh dollaridan kam bo'lmagan miqdorda yoki so'm balansli kartalar uchun ekvivalent miqdorda.
Mazkur Aksiyaga kiritiladigan maksimal operatsiyalar soni	Bir kalendar oy davomida dastlabki 10 (o'n) ta muvaffaqiyatli tranzaksiya.
Maksimal keshbek summasi	Bir kalendar oy davomida jami: – Mastercard Standard, Mastercard World, Mastercard World Digital kartalari bo'yicha — 600 000 (olti yuz ming) so'm; – Mastercard World Black Edition kartalari bo'yicha — 1 200 000 (bir million ikki yuz ming) so'm.
Aksiyaning alohida shartlari	– To'lov bekor qilingan taqdirda (tovar qaytarilganda yoki ekvayerga qisman qaytarilganda), hisoblangan keshbek bekor qilinadi va Aksiya ishtirokchisining keshbek hisobvarag'idan yechib olinadi. – Tovar Hamkorga qaytarilganda (xarid summasi Ishtirokchiga qaytarilishi bilan), Aksiya Ishtirokchisi avval hisoblangan keshbek summasini, qaytarilgan tovar summasiga mutanosib ravishda, tranzaksiya amalga oshirilgan Mastercard bank kartasiga mablag'lar qaytarilganda akseptsiz tartibda yechib olinishi bilan rozilik bildiradi.

¹ Mazkur «Premium Cashback» Aksiyasining Individual shartlari «Premium Cashback» aksiyasini o'tkazish Qoidalarining ajralmas qismi hisoblanadi.